

ABDULLA ORIPOV IJODIYOTIDA QO‘LLANILGAN FORSCHA VA ARABCHA SO‘ZLARINING PARADIGMATIK QATORLARI

Malohat G‘aniyeva Abdusalomovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
I bosqich magistranti
E-mail: malohatganiyeva0@gmail.com

R. Xidirov
Ilmiy rahbar: F.f.n., dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, o‘zbek she‘riyati olamining yetuk namoyondasi Abdulla Oripov ijodadi qo‘llanilgan forscha va arabcha so‘zlarining paradigmatic qatorlari haqida, paradigmaticaning shoir ijodidagi muhim o‘rin egallaganligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: forsiy, arabiy, paradigma, paradigmatic qator, lug‘aviy ma‘no.

PARADIGMATIC RELATIONS OF PERSIAN AND ARABIC WORDS USED IN THE CREATION OF ABDULLA ORIPOV

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Graduate student of the first stage
Malohat Ganiyeva Abdusalomovna
E-mail: malohatganiyeva0@gmail.com

ABSTRACT

This article talks about the paradigmatic relations of Persian and Arabic words used in the work of Abdulla Oripov, a mature representative of the world of Uzbek poetry, and about the important place of paradigmatics in the poet’s work.

Keywords: Persian, Arabic, paradigm, paradigmatic relation, dictionary meaning.

ПАРАДИГМАТИЧЕСКИЕ ЛИНИИ ПЕРСИДСКИХ И АРАБСКИХ СЛОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Институт Предпринимательства и Педагогики Денова
Магистрант первой степени
Малохат Ганиева Абдусаломовна
E-mail: malohatganiyeva0@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о парадигматических линиях персидских и арабских слов, используемых в творчестве Абдуллы Орипова, зрелого представителя мира узбекской поэзии, и о важном месте парадигматики в творчестве поэта.

Ключевые слова: Персидский, арабский язык, парадигма, парадигматическое отношение, словарное значение.

Zamonamizdagi adabiyotshunoslikda forscha va arabcha soʻzlardan foydalanmay qoʻyganimiz barchamizga sir emas. Xoʻsh, nega oʻzbek adabiyotida oʻchmas iz qoldirgan namoyondalar, jadidlarning asarlarida arabcha va forscha soʻzlardan mohirona foydalanilganini yodimizdan chiqardik? Ana shunday shoirlardan biri Abdulla Oripov edi, uning sheʼrlarini maktablik davrlarimizda juda koʻp yod olganmiz, va maʼno-mazmun jihatidan mukammal boʻlgani uchun osongina yodlab olar edik, buning sababi esa u asarlarida soʻzlardan mohirona foydalanganligi edi. Yoshlik chogʻlarimizda uning sheʼrlarini oʻqib chuqur maʼnoni anglamagandurmiz, chunki u shunday soʻzlardan foydalangan ediki adabiyot olamida yetilmagan inson uning maʼnolarini yaxshi anglab yetolmagan va hozirda ham uni kuzatishimiz mumkin. Adabiyot fanining pedagoglari oʻz oʻquvchilari va talabalari bilan ishlash davomiyligida ulardan oʻqiyotgan, yod olayotgan asarlarini maʼnosini ham soʻrab oladilar, oʻquvchi oʻz bilganicha, tushungan mazmunini ustoziga soʻzlab beradi, bu holatlarning oʻquvchi ongiga qiziqarli yetkazib berish pedagogning mahoratiga bogʻliq. Aslini olganda, baʼzi pedagoglar asarlarni yaratishmaydi, balki, aksincha hali mazmuni yaratilmagan asarlarni oʻqib uni fikr qilib, soʻngra, shoirnavislarga yetkazadilar.

Abdulla Oripov “Oʻzbekiston qahramoni” unvoni sohibi, oʻzbek millatining yetuk shoiri, oʻnlab yuksak asarlar tarjimoni, jamoat arbobi va albatta unutilmas namoyonda edi. Oʻzbek millati azaldan shoirnavis xalqlardan boʻlib kelgani bois, ular qaysi shoirning asarlarini toʻgʻri tanlashni bilishgan, shuning uchun Abdulla Oripovning ijodi millatimiz vakillari tomonidan iliq qarshilangan. Adibni real dunyo ijodini sevgan shoirlardan desak ham adashmaymiz. Uning ijodida oʻzbek xalqining barcha zahmatkashlari, turli kasb vakillari, onalar, bolalar, vatan hamda mana shunday siz-u bizga begona boʻlmagan timsollari mavjudki, uni oʻqiganimizda oʻzimizning boshimizdan kechirgan va koʻrgan voqeliklarimiz hayolimizda gavdalanadi.

Shoir oʻz sheʼrlaridan birida, oʻzini xalq tomonidan “bizniki” deb atashini ham xohlagan shorilardan biri edi:

Koshkiydi ahli yurt turib tepamda

- U bizniki edi desalar.

-deb yozgan shoir “Mitti yulduz” to‘plamida xalqining o‘zini bo‘lib qolgan edi. U ijod orqali o‘z xalqini, millatini suygan shoir edi va uning xalq tomondan atalgan yana bir nomi “xalq qalbining tarjimoni”, ya’ni o‘z millatining dilshodi va sirdoshi bo‘lishiga uni xalqiga bo‘lgan sevgi va muhabbati sabab bo‘lganidir.

Shoir ijodida so‘zlarni ustalik bilan qo‘llagan, arabiy va forsiy so‘zlar uning asarlarini o‘qiyotganingizda sizga bilinmaydi, asarni o‘qib turganingizda uning mazmunini shundoq ham anglay olasiz, chunki o‘zbek tilining ko‘p lug‘aviy so‘zlari arabcha, forsha yoki tojikcha so‘zlarni ham o‘z ichiga oladi.

**Kolumbda bor alamim manim,
O‘zbekiston Vatanim manim.**

shoir qo‘llagan “alam” so‘ziga e’tibor qaratamiz, u arabchadan olingan bo‘lib – alomat, belgi, nishon-a degan ma’nolarni anglatadi. Paradigmatik qatorlarda shoir so‘zlarni yaqqol o‘z ijodini boshqa asarlarga namuna bo‘lish darajasida yozgan. Shoir asarlarida “so‘z” atamasini juda ko‘p bora takrorlagan, foydalangan, ammo, ushbu so‘z arab tilida yoki forsiyda boshqacha shaklda kelgan, ya’ni, “kalima” shaklida keladi. Shoir qo‘llagan so‘zlar uning asarlariga o‘zgacha ruh beradi. Arabiy va forsiy so‘zlar ko‘p jadidlarimizning asarlarida qo‘llanilgan, shuning natijasida ularning asarlari og‘ir-vazmindir.

Arabiy va forsiy so‘zlar iste’moliga asoslangan mumtoz she’rlar vaznini faqat unililar cho‘ziq-qisqaligiga suyangan holda to‘g‘ri aniqlab bo‘lmaydi. Bu hol vazn aniqlashda hijoning sifat tarkibini belgilashga o‘ziga xos yondashuvni talab etadi: hijolarning cho‘ziq yoki qisqaligini misradagi ketma-ketmaligiga ko‘ra emas, misralararo tagma-tagligiga ko‘ra aniqlash lozim. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoirimiz arabiyda va forsiyda juda mohirlik bilan ishlay olgan, uning she’rlaridagi vazn manashuning ifodasidandir.

“Munojot”ni tinglab she’ri:

**Eshilib to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar “Munojot” .**

-deb bitilgan asarning kuyini eshitmagan odam bo‘lmasa kerak. Ushbu kuy rubob va chalg‘uvchiga murojaati uslubida yozilgan. “Munojot” so‘zi arabcha atama bo‘lib yordam so‘rash, yolverish, yalinish va najot so‘rash degan ma’nolarda keladi. Barchamizga ma’lumki, “Munojot” – o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida juda katta o‘rin tutadi, uning ohangida g‘amginlik, qalbga dard beruvchi nola mavjud.

Shoirning “Birinchi muhabbatim” she’ri orqali ham uning qay darajada mohir shoir ekanligini bilishimiz mumkin. Ushbu she’rni o‘qishayotganda shoir uni bir inson uchun yozgan deb tasavvur qila boshlashadi, ammo, she’rning oxirgi misralarida shoir uning yolg‘iz birinchi muhabbati Alloh ekanligini berib o‘tadi. Mana shu asardan ham bilishimiz mumkinki shoir asarlarini arabiy so‘zlar bilan qondrikan, arabiy so‘zlar

uning asarlarini boyitgan va bezagan. Soʻzlar uning asarlariga jon baxshida etgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,

Yolgʻiz Oллоhim mening, birinchi muhabbatim.

-deya oʻz asarini yakunlaydi, “Muhabbat” soʻzining oʻzagi arabchadagi “hubb” soʻzidan olingan, lozim tutish va sabot maʼnolarini anglatadi. “Alloh”(Oллоh) – arabcha ekanligi maʼlum, ilohiy kuch, Tangri, Xudo, islom dinida butun mavjudotni yaratgan ilohiy kuch, Uning yana boshqa ismlari ham mavjud.

Abdulla Oripov ijod yoʻlida, nafaqat oʻz xalqiga, balki, diniga ham sodiq inson edi, mana shuning uchun ham uning muxlis va muxlisalari namunali insonlardir.

Arabiy va forsiy atamalar sanʼat olamida, ijod dunyosida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirib oʻtgan baʼzi naʼmunalarimiz ijodkorning ijodidagi zarradek namunalardan edi xalos.

XULOSA

Abdulla Oripov sheʼriyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan eʼtirof etganidek, oʻzbek poeziyasida muhim oʻringa, katta salmoqqa ega boʻlgan sheʼriyatdir.

Uning sheʼriyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib soʻylash, insonning rangin tuygʻularini rassomona koʻz bilan ilgʻab, musiqiy misralarda ifodalash, uning sheʼriyatidagi badiiy haqqoniyat uygʻunligi – shoir sheʼrlarining takrorlanmas, oʻziga xos xususiyatlaridandir.

Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yangligʻ saxovatlidir. Zamin bagʻrida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar oʻsadi. Shu kabi shoirning qalbi ham oʻz tuygʻularidan turfa xil gullar – sheʼriyat gullarini armugʻon etadi.

Chindan ham Abdulla Oripovning sheʼrlari mohiyat eʼtibori bilan voqe boʻlgan sheʼrlardir. Biz uchun, “shoir bir yurt” boʻlgan Oʻzbekiston uchun shoir ham, uning sheʼrlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

Shoir oʻz sheʼrlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi boʻlgan xalq ogʻzaki ijodi motivlari, xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uygʻunlikda idrok etiladi. Ayni shuning oʻziyoq Abdulla Oripov sheʼriyatini xalqona badiiy tafakkur nuqtai nazaridan alohida oʻrganish extiyojini maydonga keltiradi. Bu esa, shubhasiz, shoir ijodidagi mazkur muammoning nazariy asoslarini, xalq donishmandligi, hikmatlar xazinasi va uning ildizlarini hamda folklor motivlarini bir butunlikda tadqiq etish masalasini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Maqsuda Ergasheva. Abdulla Oripov she'riyatning o'ziga xos xususiyatlari. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari.html>
2. Abdulla Oripov she'rlari 10 – sinf. <https://arxiv.uz/uz/documents/darsliklar/adabiyot/abdulla-oripov-she-rlari-10-sinf>
3. Abdulla Oripov. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov
4. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol.fan.nomzodi...dis. – Toshkent : 1997. –B. 142 .
5. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref.- Toshkent : 2008, -B. 26.
6. Aristotel. Poetika. Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1980. –B. 149.
7. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. –Toshkent : 2000.-B.432.
8. Vohidov R, Hoshimova M. She'riyat - shoir yuragi. Toshkent:“Fan”, 1987. - B. 68.